

Bo'rsiq yog'i, 5ta efir moylari, tabiiy levomentol saqlaydi.
Shamollashning birinchi belgilarida, ortiqcha
sovuqotishda.



Gel bolada shamollashning birinchi simptomlarida,
u ortiqcha sovuq qotishida (oyog'idan suv o'tgan,
yomg'ir ostida qolgan, tashqarida yoki konditsioner
ostida muzlatilgan, yelvizakda qolib ketganida,
qalpoqsiz, sharfsiz sayr qilganda) foydali bo'ladi.



Qo'llash usuli: 1 yoshdan qo'llanilsin.

Gel bolaning ko'krak va oyoq kafti sohasiga surtilsin,
uqalab yuborilsin. Bolani gel bilan uqalab
bo'lgandan keyin qo'llarni yuvib olishni unutmang.



Gel faqat tashqi yuzalarga qo'llash uchun
mo'ljallangan. Shilliq qavatlarga surtilmasin.



Shilliq qavatlarga tushib qolish holatida yaxshilab
suv bilan yuvib yuborilsin. Gelning yutib
yuborilishiga yo'l qo'yilmasin. Komponentlarning



shaxsiy o'zlashtirilmasligida qo'llanilmasin.

Shikastlangan teri qavatiga surtilmasin.

Tarkibi: vazelin moyi, kolloid kremniy dioksidi, levomentol,
bo'rsiq yog'i, evkalipt va yalpizning efir moylari, terpentin
moyi, lavanda efir moyi, vanillin butil efri, oqqarag'ay
(pixta) efir moyi.

KOMPONENTLAR QANDAY TA'SIR QILADI?



Lavanda moyi, terpentin moyi va levomentol

teriga surtilganda tetiklashtiradi, iliqlik hissini keltirib
chiqaradi va surtilgan sohada moddalar
almashinuvini faollashtiradi.



Efir moylari

Yalpiz, evkalipt, oqqarag'ay (pixta) teriga surtilganda
tez parlanib ketadi va tetiklashtiruvchi, viruslarga
qarshi va antibakterial ta'sirga ega bo'lgan bug'lar
ko'rinishida nafas olish yo'llariga kirib boradi.



Bo'rsiq yog'i surtilgan joyda qon oqimini
faollashtiradi va qizdiradi, terini yumshatadi.

QIZDIRUVCHI UQALASHLAR NIMA UCHUN KERAK?

Ichki a'zolar va terining ba'zi maydonlari bir-biri bilan
nervlar yordamida bog'langan. Agar terining bunday
maydoni qizdirilsa, u holda muvofiq a'zoda qon aylanishi
yaxshilanadi. Oyoq kaftlari va panjalar qizdirilganda
burun-halqum sohasining qon bilan ta'minlanishi
kuchayadi. Ko'krak qafasi sohasi qizdirilganda esa – o'pkalar
sohasining qon bilan ta'minlanishi kuchayadi.

Natijada:

- nafas olish yo'llaridagi shishish kamayadi,
- mahalliy qarshilik ortadi, shilliq qavatning me'yorda
ishlashi tiklanadi.

Saqlash sharoitlari: 0 °C dan 25 °C gacha haroratda
yorug'likdan himoyalangan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati: 3 yil ishlab chiqarilgan sanadan boshlab.

Ishlab chiqaruvchi: «VEDA» MChJ, RF, 142281, Moskva vil., Protvino sh., Lenin ko'ch., 27-uy, 129-xonadon.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik to'g'risida guvohnoma egasi / Rossiya Federatsiyasida iste'molchilardan shikoyatlarni qabul

qilishga vakolatlangan tashkilot: «AKVION» AJ, RF, 123112, Moskva sh., Presnenskaya naberejnaya ko'ch., 8-uy, 1-imorat, 8-qavat,
IN xonasi – 11-xona. Tel.: +7(495) 780-72-34, www.akvion.ru.

O'zbekiston Respublikasida iste'molchilardan shikoyatlarni qabul qilishga vakolatlangan tashkilot: OOO «ASTOR ALLIANCE»
Ipakchi ko'ch. 1A, 100175, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi. Tel.: (+99895) 199-62-55. E-mail: info@astoralliance.uz